

## OLIY TA'LIMDA INGLIZ TILI O'QITISHDA INTERAKTIV METODLAR

**Saidnazarova Layloxon Sardorbek qizi**

*Urganch Davlat Pedagogika Instituti Filologiya fakulteti,  
Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili yo'nalishi 2-kurs talabasi*

*Telefon: +99833-405-39-36*

*[saidnazarovalaylo50@gamil.com](mailto:saidnazarovalaylo50@gamil.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada talabalarga oliy o'quv yurtlarida ingliz tilini o'rgatishda va hozirgi o'quv jarayonlarida interaktiv metodlardan to'g'ri foydalanish hamda bugungi kunda ushbu turdagi metodlarning ahamiyati ko'rsatib berilgan. Shuningdek, interaktiv metodlarning bir qator afzalliklari va bunday metodlarga misollar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Metod atamasi, interaktiv metodlar, innovatsion ta'lim texnologiyalari, pedagogik kompetensiya, case-study, debate, zamonaviy dars, ta'lim samaradorligi.

**Аннотация:** В этой статье показано надлежащее использование интерактивных методов в обучении студентов английскому языку в высших учебных заведениях и в процессах обучения в настоящее время, а также важность этих методов сегодня. Также приводится ряд преимуществ интерактивных методов и примеры таких методов.

**Ключевые слова:** термин метод, интерактивные методы, инновационные образовательные технологии, педагогическая компетентность, тематическое исследование, современный урок, эффективность обучения.

**Annotation:** this article shows students the correct use of interactive techniques in teaching English in higher education institutions and in current educational processes, as well as the importance of these types of techniques today. There are also a number of advantages of interactive techniques and examples of such techniques.

**Keywords:** method term, interactive methods, innovative educational technologies, pedagogical competence, case-study, debate, modern lesson, educational effectiveness.

**Kirish.** Bugungi globallashtgan dunyoda ingliz tilini o'rganish zamon talabiga aylandi, chunki ingliz tili yoshlarimiz uchun juda ko'plab imkoniyat eshiklarini ochmoqda. Ingliz tili xalqaro til hisoblanib, xalqaro aloqa vositasi va jamiyatda muvaffaqiyatga erishish vositasi sifatida yoshlarning mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuv kabi qobiliyatlarini oshirishga ham xizmat qilib kelmoqda. An'anaviy ta'lim bunday kompetensiyalarni to'liq shakllantirmagani tufayli Oliy ta'limda ingliz tilini o'rgatishda interaktiv metodlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etmoqda. Interaktiv metodlar talabalarning til o'rganish

samaradorligini oshiradi, darslarda faol ishtirokini ta'minlaydi va zamonaviy bilimlarni o'rganib, ularni hayotga atabiq qilishni ham o'rganishadi.

**Asosiy qism.** "Interaktiv" so'zi lotincha inter-"o'zaro", actio-"harakat, faoliyat" so'zlaridan olingan bo'lib, "o'zaro faol ta'sir, hamkorlikda harakat qilish" degan ma'nolarni bildiradi. Interaktiv metodlar – bu o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi faoliyatiga asoslangan, o'quvchilarni fikrlash, tahlil qilish va amaliyotda qo'llashga undaydigan ta'lim usullaridir. Bu metodlar ta'lim jarayonida talabalarning faol ishtirokini ta'minlaydi hamda o'qituvchi bilan aloqalarni mustahkamlashga ham yordam beradi. Bunday tashqari, interaktiv metodlarni bir qator afzalliklari mavjud:

- Ta'limning samaradorligini oshiradi va darsni puxta eslab qolishga zamin yaratadi;
- Talabalarning dars jarayoniga jalb qiladi;
- Talabalarni qiziqishi, motivatsiyasini ham ijodkorlik-kreativlik qobiliyati ham oshiradi;
- Muloqot madaniyati va talabalar o'rtasidagi munosabatlarni (interaction) ham oshirishga yordam beradi;
- Kasbiy kompetensiyalarni erta shakllantirishga va talabalarning pedagogik mahoratlarini oshiradi;

Oliy ta'limda qo'llaniladigan asosiy interaktiv metodlarga quyidagilar kiradi;

1. "Brainstorming" (Aqliy hujum)- Bu metod asosan biron bir turdagi muammoni yechimiga kreativ yondashuvni shakllantiradi. Uning asosiy shartlari: avvalo g'oyalarni baholamasdan, tanqid qilmasdan yozib olish, miqdorni qabul qilish, keyin esa g'oyalarni tahlil qilish va ulardan ilhomlanish. Muammo aniq ta'riflanishi, ishtirokchilarga g'oyalar yozish uchun vaqt ajratilishi zarur.

2. "Klaster" metodi- bu metodda mavzu bo'yicha o'tilgan va o'rgatilgan ma'lumotlarni umumlashtirgan holatda tarmoqlash, ular o'rtasidagi bog'liqliklarni ko'rish va mavzularni yaxlit tasavvur qilishga xizmat qiladi.

3. "Fishbone" (Baliq skeleti)- muammoni aniq sabab-oqibatlarni aniqlashga yordam beradigan metod bo'lib, talabalar muammoni "skelet" shaklida ajratib, sabablar zanjirini aniqlaydilar. Samarasi tahliliy fikrlash va tizimli yondashuvni shakllantirishdan iborat.

4. "Debat" yoki "Munozara"- talabalar odatda ikki yoki uch guruhga ajralgan holatda, muayyan mavzu yuzasidan o'z nuqtai nazarini himoya qiladi. Har bir guruh bildirgan fikriga dalil keltiradi, qarshi fikrni tahlil qiladi va asosli javob beradi.

5. "Case-study"- bu metod ham real hayotdan olingan va biz duch keladigan muammolarni o'rta tashlash va unga birgalikda samarali yechim topishga qaratilgan interaktiv metod turi bo'lib, huquq, tibbiyot, pedagogika, biznes va iqtisodiyot kabi yo'nalishlarda qo'llash ayniqsa juda samarali.

6. “Role-play”-talabalarga biron-bir kasbiy holat yuzasidan rolli-o'yin yoki kichik sahna ko'rinishi chiqarish topshirig'ini berish. Bu metodning afzalligi kasbiy kommunikatsiyani yaxshilash, empatiya, nutq madaniyati va holatni his qilish qobiliyatini kuchaytirishdan iborat.

Bunday tashqari, interaktiv metodlardan foydalanishning psixologik tomoni ham mavjuddir. Interaktiv metodlarning asosi, avvalo, faoliyatga asoslangan o'rganishga borib taqaladi. Psixologik olimlarning fikricha inson yangi bilimlarni faqat tinglab emas, balki faoliyat va faol harakatlar asosida samarali o'rganadi. Interaktiv metodlar ham aynan talabalarning faoliyatini tashkil etishga qaratilgan bo'lib, talabalarni fikrlash, qaroq qabul qilish va muhokama qilishga undaydi.

Interaktiv metodlarning yana bir muhim psixologik jihatlaridan biri bu- ichki motivatsiyani oshirishidir. An'anaviy darslarda talaba ko'pincha tashqi omillar, ya'ni baho yoki nazorat tufayli o'rganadi. Interaktiv mashg'ulotlarda esa talabada mavzuga nisbatan qiziqish paydo bo'ladi, u o'z fikrini bildirishga va o'zini namoyon etishga intiladi. Bu holat shaxsning ichki ehtiyojlari — mustaqillik, o'zini anglash va muvaffaqiyatga erishish istagi bilan chambarchas bog'liq. Shuningdek, interaktiv metodlar guruhlar o'rtasida ijtimoiy yaqinlikni ijobiy tomonga o'zgartiradi. Guruhda ishlash, munozaralar va rolli o'yinlar jarayonida talabalar o'zaro muloqotga kirishadi, bir-birini tinglashni va hurmat qilishni o'rganadi. Bu esa ijtimoiy moslashuv, empatiya va jamoada ishlash qobiliyatlarining rivojlanishiga olib keladi. Psixologik jihatdan qulay muhitda talaba o'zini erkin his qiladi va xato qilishdan qo'rqmaydi.

Bugungi kunda Oliy ta'limda interaktiv metodlardan foydalanish keng tus olgan bo'lsa-da, uni baholash (Assessment) hamon dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu metodlarni baholashda dastavval, talabalarning darsda faolligi, yuzaga kelgan muammolarni yechish (problem-solving) ga qay darajada yondashuvi va topshiriqlarni to'g'ri bajarishiga e'tibor qaratiladi. Interaktiv darslarda keng qo'llaniladigan baholash turlaridan biri — Formativ baholashdir. Ushbu baholash turi talabaning bilim va ko'nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi. O'qituvchi talabaga tezkor fikr-mulohaza (feedback) berish orqali uning xatolarini ko'rsatadi va to'g'ri yo'nalish beradi. Bu esa talabaning o'z ustida ishlashiga va bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishiga yordam beradi. Shuningdek, interaktiv metodlarda o'zaro baholash (Peer assessment) va o'zini baholash (Self-assessment) usullaridan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'zaro baholash guruhdagilarga nisbatan mas'uliyat va xolislik sifatlarini shakllantirsa, o'zini baholash esa talaba o'zining fan doirasida kuchli va zaif tomonlarini bilib olishi va ular ustida ko'proq ishlash imkoniyatiga ega ekanligi bilan ham muhimdir. Til o'rganishdagi yana bir muhim jihatlaridan biri bu- Madaniyatlararo kompetensiya (Intercultural Communicative Competence)

Madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya — bu shaxsning turli madaniyat vakillari bilan samarali va to‘g‘ri muloqot olib borish qobiliyatidir. Ushbu kompetensiya faqat chet tilini bilish bilan cheklanmay, balki madaniy xabardorlik, bag‘rikenglik va ijtimoiy moslashuvni ham o‘z ichiga oladi. Zamonaviy globallashtirilgan jamiyatda ingliz tilini o‘rganishda madaniyatlararo kompetensiyaning shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur kompetensiya lingvistik bilimlar, madaniy qadriyatlarni tushunish hamda muloqot jarayonida moslashuvchanlik ko‘rsatish kabi omillar asosida shakllanadi. Ta’lim jarayonida debat, rolli o‘yin va muammoli vaziyatlar kabi interaktiv metodlardan foydalanish talabalarni real madaniyatlararo muloqotga tayyorlaydi. Natijada talabalar nafaqat tilni, balki turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini ham egallaydi.

Oliy ta’limda interaktiv metodlarni qo‘llash nafaqat talabaning bilim darajasini oshirish, balki uning shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Interaktiv metodlar talabalarni dars jarayonida faollikka jalb etadi, ularni mustaqil fikrlashga, tahliliy yondashuvni shakllantirishga va ijodiy yechimlar ishlab chiqishga undaydi. Shu bilan birga, bu metodlar talabalarning jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini, muloqot madaniyatini va empatiya qobiliyatini rivojlantiradi, pedagog va talaba o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlaydi.

Interaktiv metodlarning afzalliklari faqat o‘quv jarayoni bilan cheklanmaydi, balki talabaning kasbiy kompetensiyalarini erta shakllantirishga ham xizmat qiladi. Masalan, “Brainstorming” va “Fishbone” metodlari tahliliy fikrlashni kuchaytirsa, “Debat” va “Role-play” metodlari talabalarning nutq madaniyati va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu tariqa, bilimlar quruq nazariya sifatida emas, amaliyotga yo‘naltirilgan holda o‘zlashtiriladi, bu esa talabaning kelajakdagi professional faoliyatida muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shu nuqtai nazardan, har bir pedagog zamonaviy ta’lim jarayonida interaktiv metodlarni faqat qo‘llabgina qolmasdan, ularni doimiy ravishda yangilab, darsning mazmuni va mavzulariga moslashtirib borishi lozim. Interaktiv metodlar bugungi kunda ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishning asosiy vositasi bo‘libgina qolmay, balki kelajakdagi innovatsion va sifatli ta’limning poydevorini ham tashkil etadi. Shu bilan birga, ular talabalarning mustaqil fikrlashini, ijodiy yondashuvini va zamonaviy dunyo bilan samarali aloqada bo‘lish ko‘nikmalarini rivojlantiradi, bu esa oliy ta’limning asosiy maqsadlaridan biridir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1.Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan, 2020.

2. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: TDPU, 2019.
3. Shodmonqulova Sh. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. – Toshkent, 2021.
4. UNESCO. Interactive Teaching Methods in Higher Education. – 2018.
5. Prince, M. Active Learning in Higher Education. Journal of Engineering Education, 2004.
6. Xoliyorov R., To‘xtayev Sh. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2022.
7. Brown, H. D. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. – Pearson Education, 2015.
8. Bonwell, C., Eison, J. Active Learning: Creating Excitement in the Classroom. – ASHE-ERIC Higher Education Report, 1991.